



ISSUES OF COTTON BREEDING, IRRIGATION, AND AGRICULTURAL TECHNOLOGY IN THE SOURCES ON THE HISTORY OF COTTON PRODUCTION IN THE FERGANA VALLEY DURING THE SOVIET PERIOD

Mehridin Yunusovich Haqqulov

First-Year PhD Student, Asia International University

Lecturer, Department of Foreign Languages and Social Sciences

E-mail: mexriddinhaqqulov5756@gmail.com

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Fergana Valley, cotton growing, Central Fergana, machine and tractor station (MTS), square-cluster planting, hoeless (ketmen-free) cultivation, variety changeover, 108-F, agro-industrial complex.

Received: 05.09.26

Accepted: 06.09.26

Published: 07.09.26

Abstract: Drawing on issues of the journal "Qishloq xo'jaligi Uzbekistana" ("Agriculture of Uzbekistan") published in 1957-1958, on specialised literature devoted to cotton breeding, and on the materials of a monograph concerned with the industrial history of Uzbekistan, the article examines the agrotechnical, irrigational, breeding-related and organisational transformations that occurred in the cotton sector of the Fergana, Andijan and Namangan regions. The quantitative data contained in these sources are systematised in chronological sequence.

SOVET DAVRI FARG'ONA VODIYSI PAXTACHILIGI TARIXI MANBALARIDA SELEKSIYA, IRRIGATSIYA VA AGROTEXNIKA MASALALARI

Mehridin Yunusovich Haqqulov

Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich doktoranti

"Xorijiy til va ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

mexriddinhaqqulov5756@gmail.com

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, paxtachilik, Markaziy Farg'ona, MTS, kvadrat-uyalab ekish, ketmonsiz ishlov, navlar almashuvi, 108-F, agrosanoat majmui.

Annotatsiya: Maqolada 1957-1958-yillarda chop etilgan "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" jurnali sonlari, paxtachilik seleksiyasi bo'yicha maxsus adabiyot hamda O'zbekiston sanoati tarixiga bag'ishlangan monografiya materiallari asosida Farg'ona,

Andijon va Namangan viloyatlari paxtachiligida sodir bo'lgan agrotexnik, irrigatsion, seleksion va tashkiliy o'zgarishlar tahlil qilinadi. Manbalardagi raqamli ma'lumotlar xronologik izchillikda tizimlashtirilgan.

ВОПРОСЫ СЕЛЕКЦИИ, ИРРИГАЦИИ И АГРОТЕХНИКИ В ИСТОЧНИКАХ ПО ИСТОРИИ ХЛОПКОВОДСТВА ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД

Мехриддин Юнусович Хаккулов

Докторант первого курса Азиатского международного университета

Преподаватель кафедры «Иностранные языки и социальные науки»

E-mail: mexriddinhaqqulov5756@gmail.com

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Аннотация:
Ферганская долина, хлопководство, Центральная Фергана, МТС (машинно-тракторные станции), квадратно-гнездовой посев, обработка без кетменя, смена сортов, 108-Ф, агропромышленный комплекс.	В статье анализируются агротехнические, ирригационные, селекционные и организационные изменения, происходившие в хлопководстве Ферганской, Андижанской и Наманганской областей. Исследование основано на материалах выпусков журнала «Сельское хозяйство Узбекистана», опубликованных в 1957–1958 годах, специальной литературе по селекции хлопчатника, а также материалах монографии, посвящённой истории промышленности Узбекистана. Числовые данные, содержащиеся в источниках, систематизированы в хронологической последовательности.

Kirish. Sovet hokimiyati yillarida Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligining o'zagini paxtachilik tashkil etgan. Bu jarayonning ilmiy tahlili uchun davr matbuoti va maxsus adabiyoti birlamchi ahamiyatga ega, chunki ularda viloyat, tuman va xo'jalik darajasidagi aniq raqamlar saqlanib qolgan. Mazkur maqolada tadqiqot doirasi to'rt turdagi manba bilan chegaralangan: "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" jurnalining 1957-1958-yillardagi sonlari, paxtachilik genetikasi, seleksiyasi va urug'chiligiga bag'ishlangan darslik hamda O'zbekiston sanoati tarixiga oid monografiya. Bu manbalar birgalikda vodiy paxtachiligining seleksion, irrigatsion, agrotexnik va sanoat jihatlarini qamrab oladi.

Tadqiqot usullari va materiallari. Farg‘ona vodiysida paxtachilikning qadimiyligi arxeologik dalillar bilan tasdiqlanadi: Chust (Namangan viloyati) atrofidagi qabr inshootlarini qazish eramizning dastlabki asrlarida vodiya paxtachilik bilan shug‘ullanilganini ko‘rsatgan. XIX asr oxirida mahalliy g‘o‘zalarni Amerika navlari siqib chiqara boshlagan; 1884-yilda keltirilgan urug‘lar bilan 300 gektar ekilgan. Urug‘chilik ishi yo‘lga qo‘yilmagani sababli zavodlarda turli navlarning urug‘lari aralashib, “zavod aralashmalari” yuzaga kelgan, ular orasida Farg‘ona aralashmalari kechpisharligi va yirik ko‘sakligi bilan ajralib turgan.

Muntazam seleksiya ishining boshlanishi 1908-1910-yillarga to‘g‘ri keladi, 1913-yilda esa Namangan shahri yaqinida “Paxtalik-Ko‘l” paxta seleksiya stansiyasi tashkil etilgan. Andijon stansiyasida Ya.L.Navrotskiy Amerika Russels navi populyatsiyasidan Navrotskiy navini chiqargan. 1920-yil 24-dekabrda imzolangan dekretga muvofiq tashkil etilgan Turkiston seleksiya stansiyasi Namangan yaqinidagi Farg‘ona stansiyasining vayron qilingandan keyin saqlanib qolgan materiallari negizida barpo etilgan. Birinchi navlar almashuvi 1922-yilda boshlanib 1930-yilda to‘liq yakunlangan; eng keng tarqalgan Navrotskiy navi 1 million gektargacha maydonni egallagan.

Vodiy ilmiy muassasalari keyingi bosqichlarda ham faol ishtirok etgan. Ikkinchi navlar almashuvi davrida (1934-1937) Farg‘ona stansiyasida Mogilnikov tomonidan Akala 036 namunasidan 36M2 navi ajratib olingan. Urug‘chilik tarmog‘ining shakllanishida vodiy shaharlari muhim o‘rin tutgan: 1925-yilda Andijon, Namangan, Qo‘qon, Buxoro, Chorjo‘y va Urganchdagi yirik paxta tozalash zavodlarida agronom-urug‘chi lavozimi ta‘sis etilgan, 1930 yilda esa Andijonda nazorat-urug‘ bo‘limining filiali tashkil qilingan.

Uchinchi navlar almashuvi Ulug‘ Vatan urushi yillarida – 1941-1944-yillarda o‘tkazilgan. Shu davrda 31-F navi faqat Farg‘ona vodiysida, 50 ming gektargacha maydonda ekilgan. 1947-yilda boshlangan to‘rtinchi navlar almashuvining asosiy navi bo‘lgan 108-F aynan Farg‘ona vodiysida yaratilgan va 25 yil davomida barcha paxtakor respublikalarda asosiy maydonlarni band etgan; 1976-yilda bu nav ostidagi maydon 1,6 million gektarni tashkil qilgan.

Vodiy uchun rayonlashtirilgan navlar ketma-ketligi manbada quyidagicha berilgan: 1952-yilda 137-F va 138-F rayonlashtirilib, birinchisi Farg‘ona vodiysining ayrim tumanlarida 108-F ni almashtirgan, ammo tolasining texnologik sifati pastligi sababli ishlab chiqarishdan olib tashlangan; 1955-yilda Namangan viloyatida uzun tolali S-1472 navi ekilgan, u ham past hosildorligi tufayli bekor qilingan; 1960-yilda Farg‘ona vodiysi uchun uzun tolali 149-F, 1964-yilda yalang‘och urug‘li 153-F, 1970-yilda esa viltga chidamliligi va tola chiqishi yuqoriligi bilan 108-F dan ustun turgan 159-F navi rayonlashtirilgan. Andijon stansiyasida yaratilgan 152-F va 159-F navlari viltga chidamli navlar sifatida qayd etilgan, Andijon tajriba stansiyasi navlari - 108-

F, 138-FT, 149-F, 175-F katta maydonlarni egallagan; shu stansiyada chiqarilgan navlarga «F» harfi, ya'ni Farg'ona vodiysi belgisi qo'shilgan.

Manbada Farg'ona tajriba stansiyasining o'ziga xos ixtisoslashuvi ham ta'kidlanadi: stansiya vertitsillyoz vilt qo'zg'atuvchisi bilan kuchli zararlangan tuproqlar zonasida joylashgani bois uning navlari doimo viltga chidamliligi bilan ajralib turgan. Ingichka tolali paxtachilik bo'yicha esa 1954 yilda Farg'ona vodiysi uchun 123-F navi rayonlashtirilgan[1]. Shunday qilib, 1913-yildan 1970-yilgacha bo'lgan davrda vodiy nafaqat paxta ekiladigan hudud, balki butun Ittifoq miqyosida ahamiyatga ega seleksiya markazlaridan biri sifatida shakllangan.

Vodiy paxta maydonlarining kengayishi bevosita irrigatsiya qurilishi bilan bog'liq. O'zSSR Qishloq xo'jaligi vazirligi yer tuzish ekspeditsiyasi boshlig'i L.N.Malevichning ma'lumotiga ko'ra, Farg'ona vodiysi markazida joylashgan keng Qoraqalpoq cho'li Markaziy Farg'ona deb yuritilgan. Urushdan oldin qurilgan Katta Farg'ona kanali bu yerlarning anchasiga suv chiqarib o'zlashtirish imkonini yaratgan va natijada Yozyovon, Bo'z, Zadaryo kabi yangi rayonlar vujudga kelib, ularda o'nlab kolxozlar barpo qilingan[2].

Maqola yozilishidan uch yil oldin, ya'ni 1954-yil atrofida qabul qilingan qarorga muvofiq bir necha yil mobaynida 116 ming gektar yangi va 26 ming gektar partov yerni o'zlashtirish rejalashtirilgan, sug'orish kanallari qurish uchun "Farg'onavodstroy" tresti tuzilgan. Loyihada Katta Farg'ona kanalidan Qoradaryoga gidrouzel qurish, kanalni rekonstruksiya qilib suv o'tkazish qobiliyatini oshirish, Norin daryosida uzal qurish hamda Oxunboboev, Ulug'nor va boshqa kanallarning suv sig'imini ko'paytirish ko'zda tutilgan.

Manbada o'zlashtirish uch viloyat bo'yicha aniq taqsimlangan holda keltirilgan. Farg'ona viloyatiga 5 massiv, 11 tuman va 60 kolxoz, 18,0 ming gektar; Andijon viloyatiga 3 massiv, 12 tuman va 80 kolxoz, 7,1 ming gektar; Namangan viloyatiga 6 massiv, 6 tuman va 48 kolxoz, 18,6 ming gektar to'g'ri kelgan. Jami 14 massiv, 29 tuman, 188 kolxoz va 43,7 ming gektar taqsimlangan maydonni tashkil etgan. Nomma-nom olganda, Farg'ona viloyatida o'zlashtirishning asosiy ob'ektlari Qizoltepa va Oqoltin massivlari bo'lgan, Bag'dod, So'x-Isfara hamda Frunze massivlari endi o'zlashtirila boshlangan; Andijon viloyati Sarijo'g'un, Ulug'nor va Sherqo'rg'on massivlarini hamda tog' oldi tumanlaridagi kichik adir uchastkalarini o'zlashtirgan; Namangan viloyati chegarasiga esa Damko'l, Oqqum, Mamaxon, Achiko'l va Nayman massivlari kirgan.

O'zlashtirish jarayonida yangi qishloqlar barpo etilgan: maqola yozilgan paytda Farg'ona viloyati massivlarida yetti, Andijon massivlarida besh va Namangan viloyati massivlarida to'rtta kolxoz qishlog'i qurilgan, 1957-yilda esa Markaziy Farg'ona massivlarida kamida 15 ta kolxoz tashkil etish mo'ljallangan.

Yangi yerlarning unumdorligi to'g'risida manbada bir necha aniq misol bor. Namangan tumanining Damko'l massividagi Karl Marks nomli kolxoz uchastkasida 45 gektar yerning har gektaridan 25 sentnerdan paxta yetishtirilgan, bunda g'o'zalar bir marta to'la va ikkinchi marta chala suv ichgan, uch ketmon chopig'idan chiqarilgan va mineral o'g'it bilan biroz oziqlantirilgan. Pop tumanining Nayman massividagi "Pravda" kolxozi 26 gektar paxta ekib, gektaridan 22 sentner hosil olgan. Urushdan oldingi yillarda Markaziy Farg'ona yerlarida tashkil topgan va o'sha paytda 2400 gektar paxta ekayotgan Zadaryo tumanidagi "Gigant" kolxozi ham mo'l hosil yetishtirgan.

Ayni paytda manba muallifi jarayonga tanqidiy baho beradi: umuman olganda Markaziy Farg'ona yerlarini o'zlashtirish ishi qoniqarli darajada bormayotgani, bunga irrigatsiya ishlari va yerlarni o'zlashtirish yuzasidan berilgan rejaning bajarilmasligi asosiy sabab bo'layotgani ta'kidlangan. Shuningdek, o'zlashtirish tadbirlarini to'la amalga oshirish uchun "Farg'onavodstroy" tresti ishini qayta qurish zarurligi qayd etilgan. Bu - davr matbuotida hududiy irrigatsiya siyosatining kamchiliklari ochiq tilga olinganini ko'rsatuvchi qimmatli dalildir[3].

Uch viloyat bo'yicha natijalar quyidagicha qayd etilgan. Namangan viloyati To'raqo'rg'on MTSi xizmat qiladigan kolxozlarda 1956 yilda har gektardan o'rtacha 32 sentner paxta yetishtirilgan; g'o'za parvarishida mexanizatsiyadan to'la foydalanilgani tufayli har sentner paxta yetishtirish uchun 1950 yildagi 10,7 kishi-kuni o'rniga 5 kishi-kuni sarflangan. Andijon viloyati I-Lenin MTSi xizmat qiladigan kolxozlarda ham har gektardan o'rtacha 32 sentner paxta olingan, kvadrat qilib uyalab ekilgan va ikki tomonlama ishlangan har gektar g'o'zani parvarish qilish uchun odatdagicha uzunasiga qaratib ishlangan uchastkadagi 36,3 kishi-kuni o'rniga 25,8 kishi-kuni sarflangan.

Usulning iqtisodiy samarasi O'zSSR Fanlar akademiyasi Iqtisodiyot instituti xodimi Q.N.Nurmatov tomonidan alohida tahlil qilingan. Uning ma'lumotiga ko'ra, 1957-yilda O'zbekistonda 900 ming gektardan ko'proq maydonda g'o'za qator oralari mashinada ikki tomonlama ishlangan, qator oralariga 2,6 marta, ayrim MTSlarda esa 4 martagacha ishlov berilgan[4]. G'o'za uyalab joylashtirilganda har gektardagi tuplar soni qatorlab ekilganiga nisbatan 10000 dan 28000 tupgacha ortgan, mashina bilan ishlov chuqurligi 18-20 santimetr ga yetgan, holbuki ketmon bilan ishlov chuqurligi 8 santimetrdan oshmagan.

Agrotexnikadagi eng radikal yangilik "ketmonsiz ishlov" tashabbusi bo'lgan va u aynan Farg'ona viloyatida boshlangan. Toshloq tumanidagi "Farg'ona" kolxozi raisi A.Xudoyberdiev tashabbusni shunday izohlaydi: kolxoz o'tgan yili 1273 gektar paxta maydonining 273 gektarini ketmonsiz ishlash uchun ajratib, uni istovchi brigada va zvenolarga birlashtirgan[5].

Natijalar va muhokama. Agrotexnik yangiliklarning moddiy asosi mashina-traktor stansiyalari bo'lgan. O'zSSRda xizmat ko'rsatgan mexanizator N.I.Fershtatning ma'lumotiga

ko'ra, 1913-yilda O'rta Osiyo dehqon xo'jaligida 607 ming omoch, 397 ming mola va atigi 1200 ta ot plugi bo'lgan, 1921 yilga kelib har gektardan olinadigan paxta hosili o'rtacha 1,8 sentnergacha tushib ketgan[7].

1930-yilning bahorida dastlabki 5 ta MTS tashkil etilgan, birinchi besh yillik davomida ularning soni 75 taga, Ulug' Vatan urushi arafasida esa 189 taga yetgan. 1957-yil holatiga respublika qishloq xo'jaligida 1830 ta yiriklashtirilgan kolxoz, 200 ta mashina-traktor stansiyasi, 24 ta mashina-eksikator stansiyasi va 159 ta sovxoz mavjud bo'lgan; sovxozlarning 68 tasi 1957-yilning avgust va sentyabr oylarida tuzilgan.

Fershtat mexanizatsiyaning samarasini MTSlar kesimida ko'rsatadi. Birinchi O'rtasaroy MTSi o'zi xizmat qiladigan kolxozlarda butun maydonga chigitni kvadrat uyalab ekish natijasida ikki yil mobaynida har gektarning paxta hosilini 9 sentnerga oshirishga erishgan. Ikkinchi Marhamat MTSi zonasida yangi progressiv usullarni qo'llash natijasida har gektarning paxta hosili 7,96 sentner, ikkinchi Uchqo'rg'on MTSida 7,7 sentner, Ikkinchi Piskent MTSida esa 6,8 sentner oshgan. Muallif 1956-yilda respublikada 800 ming gektar yerga chigit kvadrat va to'g'ri burchak shaklida uyalab ekilgani va bu tadbir 20 milliondan ortiq mehnat kunini tejashga imkon berganini ham qayd etadi.

O'simliklarni himoya qilish ishini tashkil etishda ham vodiy tashabbuskor bo'lgan. SoyuzNIXI o'simliklarni himoya qilish stansiyasi ilmiy xodimi I.V.Skvortsovning yozishicha, 1955-yilda 1-MTS direktori V.A.Jurin va mexanik Toshmatovning tashabbusi bilan 30 ta ODN apparati bir joyga to'planib, alohida mustahkam brigada tashkil qilingan va har bir apparat mavsum oxirigacha muayyan kolxozga biriktirilgan[8].

Farg'ona viloyatining Kuybishev tumanida g'o'za-beda almashlab ekish dalalaridagi ekinlarni hasharot va kasalliklardan himoya qilish uchun MTS mexanizatorlari va kolxozlarning o'simliklarni himoya qiluvchi otryadlaridan maxsus brigada tuzilgan; SoyuzNIXI mexanizatsiya laboratoriyasi 1957-yilning bahor va yoz fasllarida shu brigada ish tajribasini o'rgangan. Natijada apparatlarga nisbatan egasizlik tugatilgan, brigadada ta'mir xarajatlari va zaxira qismlar sarfi bir necha marta kamaygan, yonilg'i va moylash materiallari ko'plab tejalgan. Agrotexnik va tashkiliy tadbirlar majmui tufayli gektaridan 15 sentnerdan kam hosil oladigan kolxozlar soni 1955-yildagiga nisbatan uch marta kamaygan, 30 sentnerdan ortiq hosil olayotgan kolxozlar esa uch marta ko'paygan.

Urushdan keyingi yillarda kolxoz tizimi yiriklashtirilgan: 1945 yildagi 6696 ta kolxoz 1950 yilga borib 1770 taga qisqargan va ularning o'rnida yanada yiriklashtirilgan 752 ta jamoa xo'jaligi tashkil etilgan. Shunga qaramay, paxtadan ko'zda tutilgan hosildorlik rejasi 25 sentner o'rniga 20,1 sentner hajmida bajarilgan.

To'rtinchi besh yillikda vodiy sanoati paxta bilan bevosita bog'lanib rivojlangan: Toshkent va Farg'ona to'qimachilik kombinatlarining quvvati oshirilgan, paxta tozalash sanoatida yangi zavodlar ishga tushirilib, ishlab turgan o'nlab paxta zavodlari qayta qurilgan. 1950-yillar oxirida Farg'ona iqtisodiy rayoni respublikada terib olinadigan paxtaning 35 foizdan ortiqrog'ini bergan. Shu davrda paxta tozalash sanoati texnik jihatdan rekonstruksiya qilinib, yirik zavodlar soni 120 taga yetgan va ularning yalpi mahsuloti oldingi besh yilliklarga nisbatan 15 barobar ko'paygan; og'ir sanoat tarkibida Andijondagi "Strommashina" va "Kommunar" zavodlari, MTSlarning ta'mirlash-mexanika ustaxonalari alohida qayd etilgan.

Paxtachilikning kimyoviy ta'minoti ham vodiya joylashtirilgan sanoat orqali amalga oshirilgan: 1962-yilda Farg'ona azotli o'g'itlar zavodi ishga tushirilgan, shu yillarda Andijon gidroliz zavodi va Farg'onadagi furfurool birikmalari zavodi barpo etilgan. Respublika miqyosida paxta topshirish hajmi doimiy o'sib borgan: 1959-1965-yillarda davlatga 20 million 667 ming tonna, 1965-1970-yillarda 23 million 673 ming tonna paxta xom ashyosi topshirilgan; 1975-yilda topshirilgan paxta miqdori 5013,3 ming tonnani, 1976 yilda esa 5 million 340 ming tonnani tashkil etib, umumittifoq hajmida O'zbekistonning hissasi 63,8 foizdan 64,5 foizga ortgan.

Ayni paytda manbalarda tizimning zaif tomonlari ham aks etgan. 1976 yilda jo'natish uchun tayyorlangan uchinchi va to'rtinchi navga taalluqli 16,0 ming tonna paxta tolasi uchun jo'natuvchilarga xorijiy valyutada 1,5 million miqdorida jarima belgilangan, jo'natilmagan mahsulotning katta qismi Samarqand, Sirdaryo va Farg'ona sanoat korxonalariga tegishli bo'lgan. Umumiy xulosa sifatida monografiyada O'zbekiston iqtisodiyotining xom ashyo yo'nalishida bo'lishi umumittifoq mehnat taqsimoti bilan mustahkamlangani va uni rivojlantirish paxtachilik bilan qat'iy bog'langani, "qayta qurish" yillarida ham e'tibor paxta agrosanoat majmuining xo'jalik mexanizmini takomillashtirishga qaratilgani ta'kidlanadi; ijtimoiy keskinlikning Farg'ona vodiysida va boshqa joylarda ko'proq namoyon bo'lishi vaziyatni ichdan ziddiyatli qilib qo'ygani qayd etiladi.

Sanoat va sug'oriladigan dehqonchilikning jadal o'sishi ekologik oqibatlarga ham olib kelgan: atmosferaga chiqariladigan zararli moddalar hajmi yiliga 4,2 million tonnadan oshgan va zararlangan shaharlar qatorida Andijon, Qo'qon va Farg'ona ham tilga olingan[9].

Xulosa. Tahlilga tortilgan manbalar Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari paxtachiligidagi o'zgarishlarni to'rt yo'nalishda kuzatish imkonini beradi. Birinchidan, vodiy 1913-yildan boshlab seleksiya markazi sifatida shakllangan va uning navlari - 36M2, 31-F, 108-F, 123-F, 137-F, 149-F, 153-F, 159-F, 175-F - butun Ittifoq paxtachiligiga tarqalgan. Ikkinchidan, Katta Farg'ona kanali va Markaziy Farg'ona massivlarini o'zlashtirish paxta maydonlarini kengaytirgan bo'lsa-da, davr matbuotining o'zi bu ish rejaga nisbatan orqada qolayotganini tan

olgan. Uchinchidan, 1956-1958-yillarda kvadrat-uyalab ekish va “ketmonsiz ishlov” usullari hosildorlikni sezilarli oshirib, mehnat sarfini bir necha baravar kamaytirgan; Toshloq tumanidagi “Farg‘ona” kolxozi tajribasi bunga yaqqol misoldir. To‘rtinchidan, paxtachilik vodiy sanoatining tarkibini belgilab bergan va uzoq muddatda xom ashyo yo‘nalishidagi bir tomonlama rivojlanishga olib kelgan.

Shu bilan birga, foydalanilgan manbalar xronologik jihatdan bir tekis emas: jurnal materiallari 1957-1958-yillarni, seleksiyaga oid adabiyot 1913-1980-yillarni, sanoat tarixiga oid monografiya esa asosan 1945-1991-yillarni qamrab oladi. 1925-1940-yillar bo‘yicha bu manbalar faqat retrospektiv ma'lumot beradi, shu bois mavzuning to‘liq yoritilishi arxiv hujjatlari va statistik to‘plamlarni jalb qilishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Симонгулян Н.Г., Мухамедханов С.Р., Шафрин А.Н. Генетика, селекция и семеноводство хлопчатника. Изд. 3-е, доп. - Т.: Мехнат, 1987. - С. 109.
2. Малевич Л.Н. Марказий Фарғонанинг янги ерларини тўла ўзлаштирайлик // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. - 1957. - № 3. - Б. 3.
3. Илғор агротехника - мўл ҳосил гарови // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. - 1957. - № 2. - Б. 1.
4. Нурматов Қ.Н. Пахтачиликдаги янги усулнинг иқтисодий фойдалиги // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. - 1958. - № 1. - Б. 17.
5. Худойбердиев А. Кетмонсиз ишлаш катта муваффақиятлар келтирди. Яхши ташаббуснинг дастлабки натижалари // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. - 1958. - № 1. - Б. 8.
6. Мамажонов У. Тўла кетмонсиз ишлашга кўчамиз // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. - 1958. - № 1. - Б. 9.
7. Ферштат Н.И. Қишлоқ хўжалигини кескин ривожлантиришнинг асоси // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. - 1957. - № 11-12. - Б. 18.
8. Скворцов И.В. Фарғона механизаторларининг муҳим ташаббуси // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. - 1958. - № 2. - Б. 29.
9. Хайдаров И. Ўзбекистон саноатининг совет иттифоқи ягона халқ хўжалиги комплексидаги ўрни (1945-1991 йиллар). - Т., 2019. - Б. 96.